

**XALQARO BAHOLASH DASTURLARI. XALQARO BAHOLASH
DASTURLARI DOIRASIDA HUKUMAT QARORLARINING MAZMUN
VA MOHIYATI**

**Muhammadyoqubova Mohira,
Adijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Pedagogika yo‘nalishi
3-bosqich 301-guruh talabasi**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xalqaro baholash dasturlari doirasida hukumat qarorlarining mazmun va mohiyati tahlil qilinadi. Xususan, EGMA (Erta sinflar uchun matematika baholash dasturi) va EGRA (Erta sinflar uchun o‘qish baholash dasturi) doirasida amalga oshirilgan hukumat qarorlari, ularning ta‘lim sifatiga ta‘siri va natijalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu dasturlarning ta‘lim tizimidagi roli, davlat siyosati bilan uyg‘unligi va natijadorligi xususida muhokama yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro baholash, xalqaro dastur, ta‘lim sifatini baholash, PISA, birlik, klaster, testlet va buklet, xalqaro monitoring.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются содержание и суть государственных решений в рамках международных программ оценки. В частности, рассматриваются государственные решения, реализуемые в рамках EGMA (Early Grades Mathematics Assessment Program) и EGRA (Early Grades Reading Assessment Program), их влияние и результаты на качество образования. Также обсуждается роль этих программ в системе образования, их согласованность с государственной политикой и их эффективность.

Ключевые слова: Международная оценка, международная программа, оценка качества образования, PISA, блок, кластер, тест и буклет, международный мониторинг.

ABSTRACT

This article analyzes the content and essence of government decisions within the framework of international assessment programs. In particular, government decisions implemented within the framework of EGMA (Early Grades Mathematics Assessment Program) and EGRA (Early Grades Reading Assessment Program), their impact and results on the quality of education are considered. The role of these programs in the education system, their coherence with state policy and their effectiveness are also discussed.

Keywords: International assessment, international program, assessment of educational quality, PISA, unit, cluster, testlet and booklet, international monitoring.

KIRISH. Davlatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin. Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limni qiyosiy o'rganish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rganish maqsadida ta'lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta'lim jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi. 1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o'tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat

qilish davlat inspeksiyasi qoshida “Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi” tashkil etildi.

O’z navbatida, “Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi”ga ta’lim tizimida o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovasion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yo’naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o’rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi.

Shu bilan bir qatorda, Milliy markaz direktori – Xalqaro tadqiqotlarning milliy loyiha menejeri hisoblanib, xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O’zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etishi belgilab qo’yildi.

Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o’rtasida o’quvchilar savodxonligini baholash bo’yicha xalqaro dasturda (Agreement for participation programme for international student assessment - PISA 2021) ishtirok etish to’g’risidagi kelishuvga erishildi. IEA tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o’quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg’unlik asosida baholashni o’z ichiga oladi, bu esa dunyo bo’yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta’lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi.

O’quvchilarning erishgan yutuqlarini o’rganishda barcha o’quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o’quvchilardan obyektiv testlarni o’tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o’qituvchilar, o’quvchilar, hattoki ota-onalardan so’rovnomalar o’tkazilib, maktabdagi ta’lim sifatiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar, jumladan, maktab resurslari, o’quvchilarning ta’lim olishga oid qarashlari, o’qitish usullari hamda uy sharoitida o’quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo’llab-quvvatlanayotganligiga doir qimmatli ma’lumotlar to’planadi.

Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o’tkaziladi. Shuningdek, o’rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Ushbu dasturning ko’p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to’ladi. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang’ich 4-sinf o’quvchilarining matni o’qish va tushunish darajasini baholash uchun.

Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun; The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun.

Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi. Yana shuni aytish mumkinki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Bunga misol sifatida, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda o'quvchilarga birinchi marta raqamli formatdagi topshiriqlarni taqdim etishni rejalashtirganini aytish o'rinlidir. Raqamli formatga o'tish bilan birga, internet muhitida boshqariladigan ePIRLS onlayn o'qishni kompyuterda baholash kabi o'zgarishlar ham ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

PISA (Programme for International Student Assessment) – o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish, (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini turli xil testlar yordamida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashi, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Har uch yilda amalga oshiriladigan PISA dasturi mamlakatlarga ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtida axborot berish, tegishli

dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratib, ta'lim siyosati sohasida qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA kabi xalqaro tadqiqotlar O'zbekiston ta'lim tizimida ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni to'g'ri, samarali va ob'ektiv o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA—o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan.

PISA xalqaro baholash dasturi shuningdek, o'quvchilar munosabati va motivatsiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi, o'quvchilarda muammoni hal qila olish kabi ko'nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikr- mulohazalari, ular bergan taklif va echimlarni baholaydi.

PISA—xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi.

PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki targ'ib qilmaydi yoki umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.

Ishtirokchi mamlakatlar ekspertlari va iqtisodchilarining fikricha, o'quvchilarda tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikma darajalari shakllanishi, mustahkamlanishi davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadamlar deb hisoblanishini e'tirof etadi.

PISA – o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur, PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi.

Xalqaro baholash dasturlari doirasida hukumat qarorlarining mazmun va mohiyati haqida gapirganda, EGMA (Early Grade Mathematics Assessment) va EGRA (Early Grade Reading Assessment) baholash tizimlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu dasturlar o'quvchilarning boshlang'ich sinflardagi o'qish va matematika ko'nikmalarini baholashga qaratilgan bo'lib, hukumatlarning ta'lim siyosatini shakllantirish va isloh qilishda muhim manba hisoblanadi.

EGRA va EGMA dasturlari

EGRA (Boshlang'ich sinflar uchun o'qish baholash tizimi).

Ushbu dastur bolalarning erta yoshdagi savodxonlik darajasini baholashga mo'ljallangan. Uning asosiy maqsadi – bolalarning so'zlarni o'qish tezligi, tushunish darajasi va fonematik xabardorligini o'lchash.

EGMA (Boshlang'ich sinflar uchun matematika baholash tizimi)

EGMA dasturi o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni qanchalik yaxshi o'zlashtirganini aniqlash uchun ishlab chiqilgan. U sanash, qo'shish-ayirish, shakllarni tanib olish va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni baholaydi.

Hukumat qarorlarining mazmun va mohiyati. Ushbu baholash tizimlarining natijalari hukumatga quyidagi yo'nalishlarda qaror qabul qilish imkonini beradi:

1. Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish
 - EGMA va EGMA natijalari o'quvchilarning bilim darajasini ko'rsatib berib, qaysi sohalarida muammolar mavjudligini aniqlashga yordam beradi.
2. Ta'lim siyosatini shakllantirish va isloh qilish
 - Natijalarga asoslanib, boshlang'ich ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish va o'qitish metodikalarini takomillashtirish mumkin.
3. O'qituvchilar malakasini oshirish
 - Baholash natijalari o'qituvchilarga qaysi mavzularga ko'proq e'tibor qaratish kerakligini aniqlashda yordam beradi.
4. Darslik va o'quv materiallarini ishlab chiqish
 - Darsliklarning mazmuni va metodologiyasini EGMA va EGMA natijalariga asoslangan holda takomillashtirish mumkin.
5. Moliyalashtirish va resurslarni taqsimlash
 - Hukumat ta'lim sohasiga ajratiladigan mablag'larni samarali taqsimlash uchun ushbu baholash natijalaridan foydalanadi.

EGMA va EGMA xalqaro baholash tizimlari hukumatlar uchun ta'lim sifatini oshirish va islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu dasturlar orqali ta'lim muassasalarining kuchli va zaif tomonlari aniq belgilab olinadi hamda hukumat ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda ta'lim sohasida samarali strategiyalar ishlab chiqadi.

XULOSA. O'zbekiston ta'lim tizimi xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirayotgan bir davrda, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning global talablar asosida raqobatbardoshligini ta'minlashni o'zining asosiy maqsadi sifatida belgilagan. Xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA va TIMSS kabi tizimlar, o'quvchilarning faqatgina bilimni emas, balki ularning

mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini o'lchash orqali, ta'lim tizimining jahon bo'ylab o'z o'rnini mustahkamlashiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, shu jumladan, o'qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion o'qitish metodlarini qo'llash va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kabi yondashuvlar, ta'lim tizimining sifatini yuksaltirishga olib keladi. Biroq, amaldagi jarayonlarda ba'zi muammolar ham mavjud. Xususan, o'qituvchilarning yangi metodologiyalarni qo'llashga tayyorligi, ta'lim resurslarining yetarli emasligi, va xalqaro baholash dasturlarining metodologiyasiga to'liq moslashtirilgan test materiallarining ishlab chiqilishi kabi masalalar o'z yechimini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent-2019.

2. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning matematik savodxonligini baholash. (Matematika fani o'qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent- 2019.

3. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholas (Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent – 2019.

4. <http://www.oecd.org/pisa/>